

Dolzarb mavzudagi ochiq dars

QSXET fakulteti “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” kafedrasining assistenti A.T.Sanbetovanning “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ” fanidan “Shamol elektr qurilmalarining turlari bilan tanishish. Shamol oqimidan energiya olish” mavzusida ochiq dars bo’lib o’tdi. 2019 yil 2 aprel kuni 5 juftlikda V bino 605 xonada 15 00 da.

Ochiq darsda bugungi kundagi dolzarb elektr energiya muammosi bo’yicha aniq masalalar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining bir turi shamol elektr qurilmalari haqida to’liq ma’lumotlar berilib, ularning turlari, quvvatlari, shamol parraklari diametri va quvvatning shamol tezligiga bog’liq hisob kitobi keltirilib natijalari olindi.

Talabalar O’zbekistonda shamol energiyasi bo’yicha olib borilayotgan ilmiy ishlar to’g’risidagi ma’lumotlar bilan ham tanishtirildi. Respublikamizda shamol tezligi 5 m/s dan yuqori bo’lgan hududlarda shamol elektr qurilmalaridan foydalanish samarali ekanligi ta’kidlandi. Ochiq dars mazmunli va qiziqarli o’tdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov